

## JEYN OSTIN ASARLARIDA LINGVOKULTUREMALARNING SEMANTIK

### QIYOSIY TADQIQI

СЕМАНТИЧЕСКОЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ

ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ ДЖЕЙН ОСТИН

COMPARATIVE STUDY OF SEMANTIC FEATURES OF

LINGUOCULTUREMES IN THE WORK OF JANE AUSTIN

Mirzayeva Gulbaxor Soxibovna

Farg‘ona Davlat Universiteti, Ingliz tili kafedrasи o‘qituvchisi

[g.m.soxibovna@gmail.com](mailto:g.m.soxibovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Quyidagi maqolada Jeyn Ostin asarida madaniy atmosferani ifodalovchi lingvokulturemalar va ularning tarjima holatida yuzaga keluvchi muammolar shuningdek, ularning ifoda turiga ko‘ra qay qanday so‘zlar bilan birilganligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** lingvokulturema, badiiy matn, milliy-madaniy so‘zlar.

**Аннотация.** В следующей статье говорится о лингвокультуральных аспектах, представляющих культурную атмосферу в творчестве Джейн Остин, и проблемах, возникающих при их переводе, а также о том, с какими словами они сочетаются по типу выражения.

**Ключевые слова:** лингвокультурена, художественный текст, национально-культурные слова.

**Annotation.** The following article talks about linguoculturemes, which represent the cultural atmosphere in the works of Jane Austen, and the problems that arise when translating them, as well as what words they are combined with according to the type of expression.

**Key words:** linguocultureme, literary text, national cultural words.

Lingvokulturemalar madaniy til birligi bo‘lib, ma’lum bir davr uchun xos bo‘lgan makon va zamon bilan uzviy aloqdagi so‘zlardir. Lingvokulturemalar badiiy matnda davrni ochib berish uchun, shuningdek, milliy va madaniy muhitni ifodalash uchun ishlataladi. Bu madaniy birliklar asosan lingvokulturoligiyada o‘rganiladi.

Bundan asosiy maqsad matnning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishdir. Shunday qilib, bugungi kunda tilshunoslikda keng e’tibor qaratayotgan til va madaniyat tushunchalari bilan bog‘liq til madaniyati masalalari ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilmoqda, shuningdek, buning tadqiq maydoni ancha kengaygan. Har bir xalq muayyan milliy urf-odatlarni aks ettiradi. Ya’ni, har bir xalqning o‘ziga xos milliy urf-odatlari, an’analari mavjud. Shu ma’noda har bir shaxs o‘sha millatni aks ettiruvchi ma’lum madaniyat, til, tarix, adabiyot bilan o‘zaro aloqador. Ma’lumki, Moskva tilshunoslik va madaniyat maktablari XX asr oxirida paydo bo‘lgan. Shu munosabat bilan bir qancha maktablar rus tilshunoslari Yu. S. Stepanov, N. D. Arutyunov, V. N. Telia, V. A. Vorobevlar asos solgan bir qancha maktablar yuzaga keldi.<sup>6</sup> Bu maktab ozidan katta iz qoldirdi. Hamda madaniyat bilan tilning uzviy aloqada ekanligini o’rgandi. Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiylar bo‘lishi shart”<sup>7</sup>.

Millatning madaniy kodi, ona tilida so‘zlashuvchilarining ijtimoiy va ma’naviy qiymati sifatida insonlar dunyoqarashining milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng asosiy element hisoblanadi. Jeyn Oustinning “Pride and Prejudice”<sup>8</sup> romani o‘sha davrning yorqin asarlaridan biri hisoblanib, uni tahlil qilish jarayonida lingvokulturemalarning qo‘llanishi ingliz milliy madaniyatga xos bo‘lgan xususiyatlari oolib bergenligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarning asl matnidagi til madaniy birliklari, ya’ni lingvokulturemalar etnik va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikni ifodalaydi. Asarning asl nusxaning ekvivalentini yaratish tillararo va madaniyatlararo muloqot doirasida adaptiv transkodlashning har

<sup>6</sup> Vorobev V. V. Kulturologicheskaya paradigma russkogo yazika. –M., 1994. Vorobev V.V. Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. –M., 1997. Vorobev V. V. Kulturologicheskaya paradigma russkogo yazika. –M., 1994. Vorobev V.V. Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. –M., 1997. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, pragmaticеский и лингвокультурологический аспекты. –М.: СХcola “ЙАЗИКИ русской культуры”, 1996.

<sup>7</sup> Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.:НЛ.в.1.М.,1960.

<sup>8</sup> Jane Austen. “Pride and Prejudice”.Paradigm Publishing, 1998. 362pages.

xil turlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Milliy madaniy ma'nolarni ifodalovchi inglizcha so'zlar va iboralar asarning madaniy asosini tashkil qiladi va ko'pincha ikkinchi tilda ekvivalent va tarjimaga ega emas. Asl hamda tarjima matnlarini qiyosiy tahlil qilishda lingvokulturema guruhlarining etnomadaniy jihatdan oila a'zolarining nomlari va ularga murojaat qilish turlari, mifologik va diniy nomlar, kundalik buyumlar hamda idishlarning nomlari, yashash sharoitining ichki qismidagi elementlarning belgilari, uy, mebel va kiyim-kechak kabilarni ko'rishimiz mumkin. Asarda lingvokulturemalar yordamida tarixiy atmosferani yaxshi his qilamiz. 1797-1813 yillardagi Angliya davri, patriarxal oila ichidagi munosabatlar, mahalliy etnik-madaniy hamjamiyatning an'anaviy qadriyatları va ijtimoiy-siyosiy voqeliklar tasvirlangan. Ingliz tilidan tarjima qilish jarayonida asarning kontseptual, semantik va majoziy qatlamlarining murakkab iyerarxiyasi vujudga keladi. Hikoyaning tashqi darajasi (syujet) va ko'plab voqealar ikkinchi tilga sezilarli semantik yo'qotishlarsiz uzatiladi. Shaxsiyat arxetiplar (or va nomus o'rtasidagi kurash, xurmatga loyiq bo'lish, sevgi izlash va qozonish, ota-onva qiz farzandlar munosabatlari, mo'jizaviy najot) nutqi va ijtimoiy-madaniy tajribasidan qat'iy nazar, ingliz tilida so'zlashuvchi o'quvchilarning qalbida javob uyg'otadi. Ijtimoiy munosabatlar va o'zaro ta'sirlarning lingvomadaniy xususiyatlari, etnik-madaniy va o'rta qatlam turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, etno-psixologik munosabatlar chet tilidagi o'quvchi uchun "shifrlangan" va to'liq semantik hajmda faqat ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy aloqalarni tashuvchilar uchun mavjud. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tiliga tarjima qilinganda, milliy madaniy muhit va etnik-madaniy qadriyatlar yo'qolib qolmaydi, balki ikkinchi darajali bo'lib qoladi va shu bilan birga, qahramonning dunyoqarashidagi "yaqinlik" va o'ziga xoslik ham tekislanadi. Natijada, tarjima qilingan matn boshqa til madaniyatiga va boshqa auditoriyaga qaratilgan mustaqil asarga aylanadi.

Bu qiyinchiliklar uchinchi til madaniyatiga ega matnni tarjima qilishda kuchayadi. Muallif va uning qahramonlarining madaniy o'ziga xosligini ifodalash o'zbek tarjimonlarining o'z asarlarida o'sha madaniy muhitni yaratishda ahamiyat

beradigan eng muhim jihatidir. Ingliz tilidagi asarlarni dunyoning boshqa tillariga o‘zbek tiliga tarjima qilish muqarrar ravishda turli til va madaniy makonlarda turlicha aniqlanadigan “uchinchi madaniyat” fenomenining paydo bo‘lishiga olib keladi. Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda ingliz madaniyatining o‘zi fransuz, nemis yoki Yevropa xalqlari madaniyati bilan taqqoslanadi. Shu jihatlariga ko‘ra, tarix, mifologiya, ingliz xalqining muqaddas va kundalik madaniyati uning matnlarida lingvokulturemalar yordamida ifodalangan.

Shuningdek, badiiy matnlar bilan ishslash jarayonida ma’lum vaqt mustabid tuzum mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy va tarixiy-siyosiy rivojlanishini yoritishning umumiyligi kontekstidagi o‘zbek tili lug‘at tarkibiga bir qancha so‘zlarni olib kirganligini ko‘rshimiz mumkin. Mamlakatimizda rus madaniyati va adabiyoti ma’lum va uzoq muddatli madaniyatlararo muloqot tufayli “turli” deb qabul qilinadi, lekin badiiy matn tahlilida hamda so‘zlarning lingvokulturologik jihatdan ko‘rib o‘tganimizda ijtimoiy va siyosiy so‘zlarni ko‘p jihatlari saqlanib qolganliga guvoh bo‘lamiz. Badiiy matndagi lingvokulturemalarga ahamiyat bersak buni qanchalik asosli eganligini ko‘rshimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Vorobev V. V. Kulturologicheskaya paradigma russkogo yazika. –M., 1994.
2. Vorobev V.V. Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. –M., 1997.
3. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокултурологический аспекты. –М.: СХcola “ЙАЗИКИ русской культуры”, 1996.
4. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.:НЛ.в.1.М.,1960.
5. Jane Austen. “Pride and Prejudice”.Paradigm Publishing, 1998. 362pages.
6. Soxibovna,M.G.(2022). Important features of linguoculturememe in study of national and cultural words.Intrnational Journal of social science &Interdisciplinary research ISSN:2277-3630 Impact factor:7.429, 11(08),9-13.

7. Soxibovna, M. G. (2023). Problems of Translation of Cultural Specific Terms and Realias Existing in the Uzbek Language. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(5), 333-337.
8. Mirzayeva, G. (2023). BADIY MATNLARDAGI LINGVOKULTUR VOSITALARNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Иновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(13), 44-47.